

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus Ta'im Vazirligi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Xorijiy mamlakatlar
iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik fakulteti nemis-rus guruhi talabalasi**

Mustaqil ish

**Mavzu: MDH mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatining
rivojlanishi**

Bajardi: Abduazimova D

Tekshirdi: Hasanova J

Toshkent – 2015

Reja:

Kirish.....1-2

Asosiy qism

1. Jahon va MDH mamlakatlaridagi tadbirkorlik sohasi.....3-7
2. Rossiya Federatsiyasida tadbirkorliksohasi.....8-10
3. O`zbekiston Respublikasining aynan shu sohani rivojlantirishga
qaratilgan islohotlar strategiyasi.....10-12

Xulosa.....13-14

Foydalanilgan adabiyotlar.....15-16

Jahon va MDH mamlakatlarida tadbirkorlik

Tadbirkorlik hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida eng muhim ahamiyatga ega faoliyat hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyati tufayli mamlakatlar bozorida mahsulotlarning diversifikatsiyalashuvi, raqobatbardosh mahsulotlarning keng segmentliligi vujudga keldi. Har bir davlat o'z aholisining turmush darajasidan kelib chiqqan holda tadbirkorlarga keng yo'l ochib berdi va shu bilan aholining turmush darajasini va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM ulushini ko'paytirishga erishdi.

Tadbirkorlik yangilik kiritish, tovar ishlab chiqarish faoliyatini o'zgartirish yoki korxonani (shu jumladan, kichik korxonani) tashkil qilish sohasida ijodkorlikning mavjudligi bilan ta'riflanadi. Tadbirkorlik faoliyatining ijodkorlik jihatlari boshqaruvning yangi tizimida ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullari yoki yangi texnologiyalarini tatbiq etishda o'z ifodasini topadi.

Ko'p mamlakatlar tadbirkorlarga yordam triqasida ularning boshlang'ich faoliyatida o'z ishlarini yaxshi yo'lga qo'yib olishlari uchun turli xil imkoniyatlar beradi va shart-sharoitlar yaratadi, bunga misol qilib soliqlarning kamaytirilishi yoki ma'lum bir muddat umuman yo'qligi, ularga kreditlarning berilishini keltirsak bo'ladi.

Tadbirkorlikni boshlashning asosiy sabablaridan biri bu yuqori daromad olishdir. Bunday natijaga esa faqatgina ishlab chiqarish faktorlarini innovatsion asosga to'g'ri qo'yib olganda, va tavakkalchilikan qo'rqmasdan, o'z majburiyatlariga mas'uliyat bilan yondashgandagina erishish mumkin. Yuqori daromad olishga intilgan holda tadbirkor o'z mahsulotini ishlab chiqarishda yuqori texnologiyalardan foydalanishni, yangi innovatsion

mahsulot ishlab chiqarishni, hodimlarning professionalizmini oshirishga harakat qiladi. Bu esa unga harajatlarni kamaytirishga va o'z raqobatchilarini o'zib o'tishga yordam beradi. Raqobathilar ham bo'layotgan voqeaga shundoq qarab o'tirmaydilar, natijada iqtisodiyotda mahsulotlarni zamonaviylashuvi, iqtisodiyotni yaxshilanishi vujudga keladi.¹

1-chizma

Mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyati qay darajadaligini ko'rsatuvchi omillar :

Potensial tadbirkorlarning faolligi darajasi	O'z biznesini hali boshlamagan, ammo o'zining tadbirkorlik qobiliyatini ijobiy baholaydigan, 18-64 yoshda bo'lgan aholining (foizda)
Tadbirkorlikni boshlamoqchibo'lgan respondentlarning faollik darajasi	Yaqin 3 yil ichida o'z biznesini ochmoqchibo'lgan 18-64 yoshdabo'lgan aholi (foizda)
Yangi paydo bo'layotgan tadbirkorlarning faollik darajasi	O'z biznesini yaratayotgan va uning ho'jayini yoki sherik bo'layotgan yangi 18-64 yoshdagi tadbirkorlar(foizda). Kompaniya 3 oydan ortiq muddatdan buyon faoliyat

¹Верховская О.Р., Дорохина М.В. 2011. Предпринимательская активность и потенциал предпринимательства в России

	ko'rsatayotgan va oyliklar to'lanib kelayotgan bo'lishi kerak.
Yangi biznes sohblarining tadbirkorlik faoliigi darajasi	Yangi biznesni boshlig'I yoki boshqaruvchisi bo'lgan 18-64 yoshdagi aholi(foizda). Korxona oyliklarni yoki pul mukofotini 3 yildan buyon to'lab kelayotgan bo'lishi kerak
Tadbirkorlik faolliigi indeksi	Tadbirkorlik faolliigi darajasini boshlang'ich bosqichini xarakterlaydi. Qaytatdan tuzilgan biznesni boshqaruvchilari, 18-64 yoshda bo'lgan aholi(foizda).
Barqaror bo'lgan tadbirkorlarning faollik darajasi	barqaror holatga kelgan biznesning egalari yoki boshqaruvchilari, 18-64 yoshda bo'lgan aholi (foizda). Korxona oylik va mukofot pulini 3 yarim yildan ortiq muddatdan beri to'lab kelayotgan bo'lishi kerak.
Tadbirkorlik faoliyatining umumiy darajasi	Oldingi va barqaror bo'lgan bizneslarning


	egalari, 18-64 yoshda bo'lgan aholi (foizda).
Chiqish va biznes darajasi	Ohirgi 12 oy ichida o'z biznesini sotgan, yopgan yoki qandaydir qilib faoliyatini to'xtatgan tadbirkorlar, 18-64 yoshdagi aholi (foizda)
« zaruriyat tufayli » oldin tadbirkor bo'lganlarning faoliyat darajasi	Oldin majburlikdan tadbirkorlik bilan shug'ullangan aholi (foizda)
« Imkoniyat yuzasidan » oldin tadbirkorlik bilan shug'ullanganlarning faollik darajasi	Oldinda tadbirkorlik bilan o'z foydasini oshirish yoki ishda mustaqil bo'lish niyatida faoliyat ko'rsatgan aholi (foizda)

Manba :Национальный отчет: Глобальный мониторинг предпринимательства

Tadbirkorlik eng yaxshi rivojlangan deb AQSHni misol qilib keltirsak bo'ladi. AQSHda 1953-yilda kichik tadbirkorlikni qo'llab quvvatlovchi mustaqil federal bo'lim – Kichik ishbilarmonlar boshqarmasini (KIB) tuzish haqida qonun qabul qilingan. Bu boshqarmaning har bir shtatlarda mintaqaviy idoralari mavjud. Ularning mutaxassisliklari kichik tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga harakat qilayotgan yoki shunday tadbirkorlar faoliyatini boshqarayotgan kishilarga kasb mahorati sirlari va moliyaviy masalalar borasida maslahatlar berishdir. Shuningdek, ular kichik tadbirkorlar sohasiga yiliga 3.5 mlrd dollar bank qarzlarini berilishini kafolatlaydi. Bu qarzlar odatda ish joylari yaratish, asbob uskuna va jihozlar sotib olishga ajratiladi. KIB

yangi va shakllanib bo'lgan kichik tadbirkorlarga texnik va boshqa o'zlashmalari borasida yordam beruvchi 700 ga yaqin Kichik Biznes taraqqiyoti markazlarining ishini ham boshqaradi. Boshqarma ko'magida SCORE dasturi amal qiladi. Dastur doirasida iste'foga chiqqan ishbilarmonlar o'zgalarga ko'ngilli ravishda yordam ko'rsatishadi.²

2-chizma




Manba : <http://www.wikipedia.com>

MDH mamlakatlarida ham iqtisodning ustun sektorlaridan biri bu tadbirkorlik faoliyatidir. Xususiyl tadbirkorlik tufayli davlatda ishsizlik

²Amerikaiqtisodiningasoslari, AQSH axborotbo'limi

darajasi kamayishi, hukumatni ishbilarmonlikni qo'llab-quvvatlashiga asosiy sabab bo'lib xizmat qilmoqda.

3-chizma : Tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun qulay muhit yaratilganlik reytingida MDH mamlakatlari tutgan o'rni:



Manba : Xavier, S.R., Kelley, D., Kew, J., Herrington, M., Vorderwuelbecke, A.
2013. Global Entrepreneurship Monitor. 2012 Global Report


Rossiya Federatsiyasi tadbirkorlik sohasi

Rossiyada tadbirkorlik boshqa mamlakatlarga o'xshab yaxshi rivojlangan. Buni sonlar bilan ko'radigan bo'lsak, Rossiyada oldingi tadbirkorlar va barqaror tadbirkorlar indeksi 2013-yilda 4.3 % tashkil etgan, biroq bu ko'rsatkich 2006-yilda 4.9%ni ya'ni 0.6% ga ko'proqni tashkil qilar edi.

Barqaror tadbirkorlar faoliyatining darajasi 2008- yilda iqtisodiy inqiroz tufayli 1.1 dan 2.8 % lar atrofida bo'lgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 33%ni tashkil etdi. bu bilan ko'rish mumkinki hozirda Rossiyada ko'proq yangi tadbirkorlar boshlang'ich bosqichdan o'ta olmayaptilar. ³

4-chizma

Biznesni ochishdan qo'rqish sabablari :




Manba :Глобальный мониторинг предпринимательства

³Верховская О.Р., Дорохина М.В. 2011. Предпринимательская активность и потенциал предпринимательства в России

Rossiyada o'z biznesini ochganlarning yoh bo'yicha guruhlarga ajratadigan bo'lsak, eng kata guruhni 25 yoshdan 44 yoshgacha bo'lganlar egallaydilar, ya'ni aholining 56%i. Tadqiqotlar natijasida shu ma'lum bo'ldiki, zaruriyat yuzasidan o'z biznesini ochganlarga nisbatan qo'shimcha foyda olish maqsadida biznes ochganlarning mahsulotlari yaxshiroq sifatga ega bo'lar ekan, bunga sabab esa qo'shimcha foyda olmoqchi bo'lgan insonlarning daromad oladigan joyi, ya'n ish joyi mavjud bo'ladi, shu sababli ham ular hamma narsani sekin-astalik bilan, yaxshilab o'ylagan ravishda, shoshilmasdan amalga oshiradilar. Tadbirkorlarning tarkibiga kelsak, Rossiyada umumiy tadbirkorlarning 59%ini erkaklar, 41%ini esa ayollar tashkil etadilar. Ammo ayol tadbirkorlar soni erkak tadbirkorlarga nisbatan ancha tezroq ko'paymoqda. Bunga sabab esa, ayollarning hozirgi kunda yaxshi bilimga egaliklari va o'z haq-huquqlari, hamda oldilariga to'gri maqsad qo'ya olayotganlaridadir.

5-chizma




Manba : Структура добровольной мотивации предпринимательства в России

Tadbirkorlarning ziyoliligini bo'yicha ular Rossiyada 3 gabo'linadilar:

- ❖ Tugatilmagan oliyma'lumotlilar
- ❖ Kasb-hunar kolleji tugatganlar
- ❖ Oliyma'lumotlilar

Aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijasida shuma'lum bo'ldiki, tugatilmagan oliyma'lumotli insonlar, tugatilmagan o'rta ma'lumotli larning nisbatan o'zishini ochishdankamroq qo'rqarekanlar, ya'ni 50% ga 30% nisbat bilan farq qilisharekan. Tugatilmagan oliyma'lumotli lartavakkal qilmasdan hech narsaga erishib bo'lmaydideb hisoblaydilar.⁴

⁴ www.gsom.spbu.ru



Manba: Активность ранних и устоявшихся предпринимателей с различным уровнем образования, 2012, %

Источник: APS Russia 2012

O'zbekiston Respublikasining aynan shu sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar strategiyasi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu asosda aholi turmush farovonligini muttasil yaxshilab borishga erishishdan iborat.

Shu sababli kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimiz hukumati iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik korxonalarning boshqa shakllariga nisbatan bozor sharoitlariga tezroq va yaxshiroq moslashadi. Shu sababli inflyatsiyaning yuqori darajasiga qaramasdan aynan mana shu soha yuqori sur'atlarda rivojlanadi.

O'zbekistonda tadbirkorlikni shakllanish jarayoniga narxlarning erkinlashtirilishi bevosita ta'sir ko'rsatdi. U real sektor va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan sohalar daromadlari o'rtasidagi tafovutlarning oshishiga olib keldi. Shu sababli, ayniqsa, vositachilik, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida kichik va xususiy korxonalar yuqori sur'atlarda rivojlandi.

So'nggi yillarda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes yuritish, iqtisodiyotimizga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun zarur sharoit va qulay muhit yaratish borasida biz ulkan ishlarni amalga oshirdik.

Tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi prinsip joriy etildi. Faqat o'tgan yilning o'zida ruxsat berishga oid 80 dan ortiq tartib-taomil, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasi, 65 turdagi statistik hisobotlar, 23 turdagi hisobotni taqdim etish muddatlari qisqartirildi, 22 turdagi interfaol soliq xizmati joriy etilib, zarur ruxsatnomalar berish muddati 2marta va mazkur jarayonlar uchun xarajatlar qiymati 5marta qisqartirildi.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ruxsatnoma olish jarayonida to'lanadigan xarajatlar 8 barobar kamaytirildi, banklarda hisobraqami ochish uchun to'lovlar bekor qilindi va shu borada boshqa zarur tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston biznesni ro'yxatga olish shartlari bo'yicha jahon miqyosida 66 pozitsiya yuqoriga ko'tarilib, reyting o'tkazilgan 189 mamlakat orasida 21-o'rinni egalladi, kredit ajratish bo'yicha reytingda esa 24 pozitsiya yuqoriga ko'tarildi. Mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhiti va biznes

yuritish sharoitining bugungi holati erkin bozor iqtisodiyotining talab va prinsiplari, umumiy xalqaro normalarga to'liq javob beradi.

Tadbirkorlar qishloq joylarda energiya ta'minotining beqarorligiga, ishlab chiqarish va yo'l infratuzilmasining kerakli darajada rivojlanmaganiga, tekshiruvlarning ko'pligiga, shuningdek, joylarda ijro intizomining nisbatan pastligiga haligacha duch kelmoqda. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish uchun turli ruxsatnomalar berish muddatlarini yanada qisqartirish, ularning tartib-taomillarini soddalashtirish va arzonlashtirish, tadbirkorlik yo'lidagi ortiqcha byurokratik g'ovlarni bartaraf etish va bunday holatlarga yo'l qo'ymaslikni jiddiy nazoratga olish shart.⁵

Xulosa

Tadbirkorlik raqobat muhitining shakllanishi va rivojlanishiga olib keladigan tarkib hosil qiluvchi omil hisoblanadi.

Bozor qatnashchilarining soni saraqobat kurashi intensivligini belgilab beradi. Ayni vaqtda raqobat sharoiti dabitiror birmulk shakli bozorda ustuvor o'ringa egabo'lmaydi. Iqtisodiy mujassamlashuv va raqobat muhiti o'rtasida teskaribog'liqlik mavjud bo'lib,

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yekunlarida 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi ning majlisidagi ma'ruzasi

mujassamlashuvdarajasiningpasayishibozorqatnashchilarisoniningo'sishigava raqobatkurashiningintensivlashuvigaolibkeladi.

Tadbirkorlikiqtisodiyotdaraqobatmuhitinishakllantirishvaraqobadmexa nizminingsamaralifaoliyatko'rsatishinita'minlovchimuhimomilbo'libxizmatqil adi. Shu

sababliishdaushbusektornidavlattomonidanqo'llabquvvatlashvaraqobadmexa nizminishakllantirishbo'yichaxorijiy mamlakatlartajribalario'rganildivaumumla shtirildi. Bu

esamamlakatimizdakichikvaxususiytadbirkorliknidavlattomonidanqo'llabquv vatlashtiziminitakomillashtirishuchunayrimchoratadbirlarniamalgaoshirishma qsadga ,uvofiqekanliginiko'rsatadi:

- Xususiyyadavlatmonopoliyasinicheklash, savdoqoidasinasossizbuzishlarnitaqiqlash, erkinliknioshirish;
- Kichikvaxususiytadbirkorliksubyektlarinisoliqqatortishdasoliqqatorti shbasasiniqisqartirishvashuasosdatavakkalchiliknipasaytirish, hamdakichikbizneskorxonalariningfaoliyatiningbarqarorliginita'minl ashgayordamberish;
- Soliqsohasidakutilayotgano'zgarishlarto'g'risidatadbirkorlarnioldind anhavardorqilish;
- Tadbirkorliknimoliyalashtirishdaturlixilbyudjetdantashqari fondler faoliyatirivojlantirishhamdakreditittifoqlarinitashkilqilish;
- Davlatbuyurtmalarinibajarishishlarigakengroqjalbetishvaulargaimtiy ozlarberish;
- Turlixilxizmatlarniko'rsatish, axborotmarkazlarixizmatiniyo'lgaqo'yish;

Bundantashqari,
kichikkorxonalaryirikkorxonalarningboshqaxizmatlaridan ham
foydalanishimumkin:
franchayzertomonidankichikkorxonafaoliyatimonitoringiningyuritili
shi, kichikkorxonahodimlarinio'qitish, malakasinioshirish.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariva 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'i shlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi
2. Boltabayev M., Qosimova M., Ergashxodjayeva Sh., G'oyibnazarov B., Samadov A., Otajonov Sh.: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (Darslik)
3. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarimizni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. // Xalq so'zi,
4. Предпринимательство: Учебник /Под. ред. М.Г. Лапуста. 4-е издательство, доп. -М.: ИНФРА-М, 2008
5. Романова М.В. Бизнес- планирование: Учебное пособие. -М.: ИД «ФОРУМ»: ИНФРА-М, 2008
6. Петров К.Н. Как разработать бизнес - план. Практическое пособие с примерами и шаблонами, 2-е изд. -М.: «ООО И.Д.Вильямс»
7. Сборник бизнес планов: практическое пособие. /Под ред. Ю.Н. Лапыгина. - М.: «Омега-Л»
8. Гончар К. Р. 2009. Инновационное поведение крупнейших российских компаний. *Мировая экономика*
9. Xavier, S.R., Kelley, D., Kew, J., Herrington, M. Vorderwuelbecke, A. 2013. Global Entrepreneurship Monitor. 2012 Global Report
10. **Ведение бизнеса 2014**
11. Верховская О.Р., Дорохина М.В. 2011. Предпринимательская активность и потенциал предпринимательства в России O'zbekiston Respublikasi hukumati rasmiy veb-sayti www.gov.uz
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb-sayti, www.stat.uz
13. O'zbekiston Axborot Agentligi veb-sayti, www.uzanet.uz

14. Гришанков Д., Кабалинский Д. 2008. Наноэффектмегабизнеса.
<http://www.raexpert.ru/ratings/expert400/2008/part2/>

15. Заславская О. 2010.
Похвастаться нечем. http://www.raexpert.ru/researches/publications/boast_nothing/